

KIMYOVİY TİLNI SHAKLLANTIRİSHNING İLMİY -METODİK ASOSLARI

Mirkozimjon Nishonov

Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasi professori, texnika fanlari nomzodi  
Ozodaxon O'rınova

Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilmiy bilish va o'qitishda kimyo tilining nazariyasi, kimyoviy tilni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, bilish nazariyasidan kelib chiqqan holda fan tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida muxim metodik xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** ilmiy bilish, kimyo o'qitish, kimyoviy til, kimyoviy tilni shakllantirish.

Mualliflar [1-12] oz taddiqotlarida kimyo fanini o'gitish va kimyoviy tilning fan va o'qitishdagi didaktik funksiyalari tahlilini batafsil yoritganlar. Ushbu maqolada kimyoviy tilni shakllantirishning asosiy bosqichlari va uslublarini yoritdik.

Maktabda kimyoviy tilni o'rganish va qo'llashni o'rganishning asoslangan metodikasini tuzilishi shu jarayonning ilmiy asoslariga suyanadi.

Ilmiy bilish va o'qitishda kimyo tilining gnesologik umumiyligi uni shakllantirishning yagona metodologiyasini aniqlaydi. Bu bilishning nazariyasi va mantig'ining dialektikasidir. Filosofik ta'rifga binoan "Til - bu bilimlarni belgilar tizimi ko'rinishida mayjudlik shaklidir." Ular fan tilining atrof dunyoni bilishda kimyo tilining funktsiyasi va axamiyati, moxiyatini ularni belgilarda aks ettirishni o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ular orqasida mayjud bo'ltan bilimlarni yoritish usullari bilan qurollantiradi. Kimyoviy tilning o'ziga xosligi kimyo fanining mantig'i va mazmuni bilan bog'liqidir. Uning har bir nazariyasiga o'zining tili to'g'ri keladi. Masalan: atomistika, elektrontlar nazariyasi bilan kimyoviy tuzi lish nazariyasini tavsiflash apparatlari bir-biridan keskin farq qiladi.

Maktabda kimyoviy tilni shakllantirish ulug' rus kimyogar olimlari G.I.Gess, D.I. Mendeleev, A.M.Butlerovning nomi bilan bog'lik. Uni shakllantirish asoslariga V.N.Verxovskiy, L.M.Smorgonskiy, S.G.SHapovalenko, SM.Kiryushkinlar tomonidan asos solingan. Hozirgi zamон kimyoviy tilni shakllantirish metodikasi boy metodik meros va o'qitish nazariyasi hamda amaliyotinining so'nggi yutuqlarini o'z ichiga oladi. Maktabda kimyovii tilni shakljntirish asosida yotuvchi bir qator tamoyilli masalalarni ko'rib chiqaylik.

Dialektik materializmning materianing birlamichi, ongning ikkilamchiligi haqidagi nazariyasi (ta'limoti) ga muvofiq moddalar va ularning o'zgarishi haqidagi ob'ektiv dunyo kimyoviy bilishning manbai hisoblanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini amalgaga oshirishda borliqni aks ettirishning bevosita shakli - tushunchalarini o'rnini egalovchi, bilimlarni o'quvchilarning ongida umumlashgan xolda aks ettirishni ta'minlashda til belgilari xizmat qiladi. Shunay qilib tushunchalar-o'quvchilar ongida kimyoviy bilishning umumlashgan shaklining aks etishidir.

Metodik jihatdan kimyoviy tilning tabiiy tilga bo'y sunishi va ularning genetik bog'liqligining anglash muximdir. Kimyoviy tilning aks ettirish funktsiyasi tabiiy til bilan va

bilishning boshka mantiqiy shakllari bilan chambarchas bog'liqlikdagina bajarilishi mumkin. Fan tilining o'ziga xos xususiyati bilish nazariyasidan kelib chiqadi.

Shu ta'lomitdan belgini atrof - dunyoning hodisa va ob'ektlari bilan bog'lash va kimyo fani tilining hamma komponentlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish zaruriyati haqida muxim metodik xulosalar kelib chiqadi.

O'qitishda fan tili bilan aks ettiriladigan kimyoviy bilimlarning spetsifikasi (o'ziga xosligi) ni xisobga olish zarur. Kimyoviy til barcha komponentlar bilan birga moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari, ularning o'zgarishlari asosida yotuvchi reaksiyalar haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi. U ular haqidagi nazariy bilimlarni qisqa va ixcham ifodalaydi.

Kimyoviy til tushunchaning shaklidir - shu bilan birga kimyoviy til real hodisa va voqealarni ularni tushungiruvchi nazariya bilan aloqasini ta'minlaydi. Bilimlarni belgi bilan ifodalash ma'lumotini umumlashtirish va ixchamlashtirish, ko'plab empirik materiallardan, umumiyligi mohiyat va ichki qonuniyatni ajrataish hamda kimyoviy ob'ektlarning tuzilish xususiyatlarini qayta tiklashga qaratilgan.

O'qitishni tashkillash uchun kimyoviy tilni qo'llash va o'rganishga metodik yondoshishlarini ajratish muximdir. Kimyo o'qitishning tarixi, metodologiyasi va metodikasi uni o'rganishga tarixiy yondoshishni tasdiqladi. Bu shu bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy tilning mazmunini bosqichma-bosqich uning tarixiy rivojlanishiga mos bo'lgan tarixiy materialni faol qo'llab yoritishda namoyon bo'ladi.

Bu kimyovii simvolikani o'rganishda ayniqla yorqin namoyon bo'ladi. Til o'zlashtirilgandan so'ng, u kimyoviy tushunchani shakllantirishning muxim vositasi sifatida qo'llaniladi. Kimyoviy til tushuncha shaklsi bo'lib qoladi.

Kimyoda tushuncha va tilning o'zaro bog'likligi shakl va mazmunning birligi tamoyilidan kelib chiqadi. Bu o'qitishda tushunchaviy yondashuvni aniqlaydi. Kimyoviy til bilan ishslash bo'yicha o'quvchilarining bilish faoliyatini tashkillash belgi axborotlarini qayta ishslash psixologiyasiga suyanadi. Shartli belgilarni bilan ishslash empirik darajadagi nazariy bilish darajasiga o'tganligidan dalolat beradi. O'zlashtirilgan kimyo tili mantiqiy amallar operatori, o'quvchilar psixologik faoliyatini ichki qu roliga aylanadi. So'z va

shartli belgilarning qurol bo'la olish funktiyasi birinchi marta fiziolog I.M..Sechenov va psixolog L.V.Vigotskiylar tomsnidan ilgari surilgan va asoslangan.

Bilish nazariyasida til va tafakkurning organik ajralmasligi va dialektikasi tasdiqlangan. Tilning tafakkurga ta'siri o'qitish uchun fakt bo'lib qoldi.

Shu mazmunda kimyoviy til kimyoviy tafakkurlash shaklsidir. Pedagogik psixologiya tomonidan fanning shartli belgilarni o'qitishda ongli va faol qo'llash o'quvchilar tafakkurini keskin rivojlantiradi, aksincha, fanning yomon o'zlashtirilgan tili ularni o'qitish va rivojlanishini sekinlatadi.

Kimyoviy til ko'pgina abstraktlash (ko'pgina nazariy xulosa, umumlashtirish) hosil qilish manbai hisoblanadi. Uning shartli belgilarni o'zi oliv darajadagi umumiylilikning abstraktsiyasidir. Tabiatni to'la va chuqur yoritishda abstraktsianing roli fanda yoritilgan. Yuqori sinf o'quvchilarining hozirgi zamon tafakkurlash stili va bilimlarining abstraktligi ularni faqatgina tushunchalar bilan emas, balki simvollar bilan ham tafakkurlashda namoyon bo'ladi. Bularniig barchasi tilning o'quvchilarni rivojlanishidagi axamiyatini ko'rsatadi.

**Kimyovii tilni o'rganish hamda qo'llash tamoyillari**

Kimyoviy bilishning mantig'i va maktabda kimyo o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlarini kimyovii tilni o'rganish hamda qo'llashda quyidagi tamoyillarni ajratish imkonini beradi:

1.Kimyoviy tilni o'rganishda tarixiylik.

2.Borlikni aks ettirishda uning hamma komponentlarini o'zaro bog'likligi.

3. Kimyoviy til yordamida o'rganitning maqsadlarini izchil o'zgarishari va turli xil nazariy darajalarni hisobga olgan xolda uni bosqichma- bosqich rivojlantirish .

4.Reallikni yoritishda sifat va miqdor,umumiylit va xususiylik (individu allik)ning birligi .

5. Kimyo tilini qo'llashda mazmun va rasmanlikni (tushuncha va u ni ifodalashning belgi shakl si ning ) o'zaro bog'lik ligi.

6. Belgi lar bilan ish ko'rish jarayonida o'quvchilar rivojlani shini ommalashtirish

Kimyoviy tilni shakllantirishni ilmiy asoslarini anglash va ulardan to'g'ri foydalanishda metodik va maxsus adabiyotlar yordam beradi. O'qituvchi doimiy ravishda unta murojaat qilib, o'z ustida ishlashi va tajribasini orttirib borishi lozim.

### **Shakllanish jarayonida kimyoviy til**

1.Avval maxsus bilish predmeti

2.Bilishni, bilimlar va ko'nikmalarni egallash medodi.

3. Bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashning ijodiy vositasi kabi bir qator bosqichlarni o'taydi.

Kimyoviy til haqidagi bilimlar uning uch tomonini qamrab o lishi zarur:

1. Semantik (kimyo tilining funktsiyasi va axamiyatini yorituvchi) :Bu yer da eng asosiysi - kimyoning belgi va ob'ektlari o'rtasidagi munosabatni aniqlash.

2.Grammatik ( belgi,formula ,teng lama , termin va nomlarning talaffuz etish usullari va qoidalarini o'z ichiga oluvchi).

3.Amaliy (kimyo tilida o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llay olish usullari bilan qurollantiruvchi, unda muomalaning barcha turlarini hisobga oluvchi kommunikatsiyani ta'minlash (o'qish ,yozish, qulq solish).

Tilning barcha tomonlari muxim va ular birlikda yoritiladi.

Kimyoviy til moddalar va ularning o'zgarishlarini bilish va tavsiflash vositalaridan biri xolos. Shuning uchun uning mazmuniga mifik kimyo kursida minimal , biroq ongli o'zlashtirib olish uchun yetarli ma'lumotlar kiritilgan. Uning tarkibiga kimyoviy simvolika , terminologiya va nomenklatura haqidagi bilimlar va ular bilan ishslash ko'nikmalar k iradi.

### **Simvolika mazmuniga**

a) kimyoviy belgilar kiradi. Ular haqidagi bilimlar : kimyoviy simvolikani yaratish tarixi: belgilarshshg nomlari va ifodalashning axamiyati va mazmuni; ular mazmunining sifat va miqdoriy jihatdan ifodalaniishi; ko'nikmalar, belgalarni yozish ,talaffuz qilish va talqin qilish; be lgidan nomga o' tish va aksincha:

b) kimyoviy formulalar. Ular haqidagi bilimlar : kimyoviy bilishda formulalarning axamiyati,. kimyoviy formulalarning turlari: empirik , elektron ,ionli , tuzilish ,proektsion, chog'ishtirilgan, umumiy va boshqa ; ularning mazmuni, sifat va miqdor jixatdan ifodalaniishi: tarkibining doimiyligi qonuni bilan aloqasi , formulani aniqlash metodlari va u ni tuzish qoidalari.

Ko'nikmalar: formulalarni tuzish ,o'qish, tahlil qilish va ularni talqin qilish, formula bo'yicha elementlarning valentligi va oksidlanish darajasini aniklash;; kimyoviy bog'lar va

birikmalarning reaktsion qobiliyati, ularda ifodalangan tarkib va tuzilish qonuniyatlarni aniqlash; hisoblar bajarish, bilimlarni sistemaga solish va sinflash uchun birikmalarning vodorodli va kislородли birikmalarni ularning sinflari hamda gomologik qatorlarining umumiy formulalaridan foydalanish;

v) Kimyoviy tenglamalar. Bilimlar: kimyoni bilishda tenglamalarning axamiyati; tenglama turlari( empirik , termokimyoviy , elektron , ionli , sxematik va boshqalar ) ; ularning mazmuni va modalar massasining saqlanish qonuni bilan aloqasi , ularda reaktsiyalarning sifat tomonlarini va mikdoriy nisbatlarini ifodala nishi, turli xil tenglamalarni tuzish va ular bo'yicha hisoblar. Ko'nikmalar: tenglamalarni tuzish , tahlil qilish, talqin qilish, koeffitsientlar mazmunini yoritish , reaktsiya tenglamasi bo'yicha uning tipini aniqlash va uning tavsifini berish, reaktsiya te ng lama lari bo'yicha hisoblar bajarish , kimyoviy reaktsiyalar haqidagi bilimlarni umumlashtirishda qiskartirilgan va sxematik tenglamalar yordamida konkretlashtira olish, bir turdag'i tenglamalardan boshqa tu riga o'tishni amalgalash oshira olish.

### **Terminologianing mazmuni**

Bilimlar: umumilmiy va kimyoviy terminlarning mazmuni va axamiyati , ularning tushunchalar bilan aloqasi: terminlarni kelib chiqishi ( etimolgiyasi) va mazmuni bo'yicha tahlil qilish . Ko'nikmalar: terminlarni yozish va talazaffuz qila olish ; ularning tushunchalar bilan aloqasini aniklash. Tushuncha ta'rifidan termin mazmunini ajrata olish , bir terminni mazmuni va axamiyati bo'yicha yaqin bo'lgan boshqa termin bilan almashtira olish. Ularni tahlil qilish. termin va simvollarning biridan ikkinchisiga o'ta olish , te rminologik lug'at bilan ishlay olish. Kimyoviy nomenklaturaning mazmuni

Bilimlar: nomenklatura haqida tushuncha va uning bilishdagi axamiyati , o'qitishda nomenklatura tizimining turlari, kimyoni bilishda nominalъ nomlarning axamiyati , nomenklatura,terminologiya va simvolikalar o'rtaсидаги munosabat.

Ko'nikmalar: ionlar , anorganik va organik birikmalarning nomlarini o'qish, talaffuz qilish va talkin qilish, nomlardan moddalarning sinfi , konkret moddalar, ularning sifat va mikdoriy tarkibi va tavsifini ajratib olish, xalkaro nomenklatura tamoyillariga muvofiq moddalarning nomini tuzish , moddalarning nomlaridan uning formulasiga o'tish va aksincha, xalkaro , o'zbek , rus va trivial namenklaturalarni o'zaro taqqoslash, organik birikmalarning formulalari bo'yicha ularning izomerlarini ratsional va sistematik nomlarini tuzish va aksincha, moddalarning tuzilishini va tavsiflashda nomenklatura dan foydalana olish.

Bu bilim va ko'nikmalar o'qitish yillari bo'yicha tent taqsimlanadi. Predmetni izchil o'rganish jarayonida kimyoviy til nazariya va tushunchalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqlikda takomillashib bora di.

### **Umumlashtirilgan xolda fan tili haqidagi bilimlar ikki guruhg'a bo'lish mum kin:**

I. Real ob'ekt va nazariy tushunchalarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar.Ular tilning va uning ayrim belgalarining axamiyati, ularning mazmuni , kursning ifodalangan ob'ektlarini,tushuntirib beruvchi nazariya bshvn aloqasi, ular odatta darsning asosiy materialiga kiritilib, shakllantirilayotgan tushunchalar bilan birgalikda o'zlashtiriladi.

2. Belgilar bilan amallar bajarish usullari haqidagi bilimlar. Ular nazariy material bilan kamroq bog'la ngan va ko'nikmalar hosil qilish uchun yullanma bo'lib xizmat qiladi.

Ko'nikmalar uch guruxga bo'linadi.

1.Grammatik tavsifdagi k o'nikmalar ( belgi larni yozish va o'qish, belgilar bilan ishslash, qayta ko'rish, tuzish qoidalaradan foydalanish ) U lar odatda algoritmlar yordamida reproduktiv darajada hosil qilinadi. Ularning ko'plari avtomatlashib malakalarga aylanadi. Belgilarning semantikasi bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarning shakllanishini ta'minlovchi ko'nikmalar. Ular produktiv darajada o'zlashtiriladi. Qisman algoritmlanib avtomatlashadi.

2.Ijodiy elementlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ko'nikmalar ( belgilarni mustaqil talkin qilish, simvolika asosida prognoz qilish va modellashtirish, umumlashtiruvchi jadval va sxema- lar tuzish,tayanch sxematik kokspektlar tuzish va boshqalar, ular evristik faoliyat jarayonida hosil qilinib, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llashga qaratilgan.

Bilish nazariyasi va kimyo fani kimyoviy til va tushunchalarning o'zaro chambarchas bog'likligini tasdiqlaydi.

Termin va simvollar tushunchalarning ifodalash shaklsi hisoblanadi. Kimyoning ob'ekt va hodisalardagi eng muxim va asosiylarini ajrata olish, ularni umumlashtirish, xossalari va munosabatlari bo'yicha sinflash , fan terminlarida bilimlarni mustaxkamlashdagi kimyoviy simvolikaning o'ziga xos xususiyatlari tufayli, kimyoviy til tushunchalarini shakllantirishning eng muxim vositasi bo'lib qoldi. Faqatgina ularning tushunchalar bilan chambarchas aloqasi o'rnatilgandagina, tilni shakllangan shakli (simvol,termin) mazmunli deyish mumkin.

Bunga belgilarni talqin qilishga bilimlarning butun mazmun, nazariy tushunchalar va boshqa intellektual amal (faoliyat) jalb qilinsagina erishilishi mumkin.

Shunday qilib, kimyoviy tilning maqsadi , funktsiyasi va operatsion yo'nalganligi bilimlarni egallash va qo'llash, uni o'rganish jarayonida uni egallash ( birinchi) bosqichini imkonи boricha ixchamlashtirish yo'lidagi o'qituvchilarning intilishlarini oqlaydi. Kimyoviy tilni o'rganish predmetidan tezroq sifat jihatidan yangi xolat o'qitish vositasiga aylantirish o'qituvchining muxim vazifasidir. Bu masalani yechish til materiali mashqlarini sinchkovlik bilan tanlash va ularni dar slar ning asosiy mazmuniga puxta o'ylab kiritishni talab qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Nishonov,Holiqova N.R. Didactic analysis of the process of organizing and conducting professional independent education in the credit-module system. Science and innovation, 2023 том 2 B 8, pp 175-177 .

2. M. Nishonov, N.R.Holiqova. The importance of using educational resources in independent learning of chemistry. Scientific newsletter of Namangan State University. Namangan 2022. No. 3, pp. 80-83.

3.M. M. Yunusov, M.Nishonov. Studying the Efficiency of Teaching the Chemical Technology Course Using Information Technologies. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, (2022). 13,33-38.

4.М.Нишонов, Ш.Мамажонов,В.Хўжаев – Кимё ўқитиши методикаси.Тошкент: Ўқитувчи , 2002.

5.М.Ф. Нишанов, АА Хайдаров, Д.М. Мирзаев - Значение изучения среди раствора при профессиональной подготовке студентов направления «Пищевая технология».Журнал Universum: технические науки, 2020 Номер 10-2 (79) Страницы 92-94

6.M. Nishonov, S Mamajonov, D Tojimamatov -Methodological significance of studying the migration of microelements in water and soils.

American Journal of Applied Science and Technology, 2022 Том2 Номер07 Страницы10-14

7.М.Нишонов,С.Тешабоев.Мактабда кимёдан амалий ишлар. - Т.: Ўқитувчи, 1992,134 бет

8. M Nishonov, Sh.A. Mamajonov, D Tojimamatov -Methodological Significance of Studying Chemical Pollution of the Environment by Microelements.Eurasian Research Bulletin, 2022 Том10. Страницы 55-58.

9.M. Nishonov, Sh.A. Mamajanov . Improving the Structure and Content of the Course" Methods of Teaching Chemistry" in Higher Education.Pedagogical Education, 2004.

10.M.Nishonov, T.Amirova. Integrative description of the science of chemistry teaching methodology with didactic analysis.- Science and innovation, 2023 том 2 номер b6 страницы 245-248

11. M.Nishonov. Methodological significance of studying the transfer of dissolved microelements through soil solution.- Science and innovation, 2023 том 2 номер special issue 6. страницы 64-68

12. Карпенко М. П. Перспективы развития системы высшего об-разования на основе «Концепции вуза- 2030» / М. П. Карпенко //Вестник РЕАН. 2005. Т. 5. №3. С. 27-34